

6.2. "Ta'minotchi" javobgarligi: "Ta'minotchi" ning aybi bilan tovarlarni yetkazib berish muddatlari kechiktirib yuborilsa "Ta'minotchi" tomonidan kechiktirilgan har bir kun majburiyat bajarilmagan qismining 0.5% miqdorida penya to'laydi, biroq bunda penyaning umumiy summasi yetkazib berilmagan tovar summasining 50 foizidan oshib ketmasligi kerak.

6.3. "Xaridor" ning javobgarligi: "Xaridor" ning aybi bilan yetkazib berilgan tovarlar haqqini o'z vaqtida to'lmasa, "Xaridor" tomonidan kechiktirilgan har bir kun uchun kechiktirilgan to'lov summasining 0.4% foiz miqdorida, ammo kechiktirilgan to'lov summasining 50 foizidan ortiq bo'lmagan miqdorda penya to'laydi.

6.4. Shartnomaning 2- bandiga asosan "Ta'minotchi" tomonidan sotilgan mahsulot sifatsizligi tegishli hujjatlar bilan 3 kun ichida tasdiqlansa, u holda "Ta'minotchi" sifatsiz mahsulotni sifatli mahsulot bilan almashtirib beradi va bu bilan bog'liq barcha xarajatlarni o'z zimmasiga oladi.

6.5. "Ta'minotchi" ning hisob varaqasida mahsulot solingan qutilar (tara) ni qaytarilishi quyidagi qutilar (tara) ni qaytarilishi shart.

6.6. Tomonlar o'zlariga yuklatilgan majburiyatlardan o'zlariga bog'liq bo'lmagan quyidagi fors -major holatlarida qisman yoki to'liq ozod etiladilar: yong'in, tabiiy ofatlar, harbiy harakatlar, blokadalar, import va eksport qilishga taqiqlar.

7. Nizolarni hal etish

7.1. Shartnoma majburiyatlaridan kelib chiqadigan barcha nizolar tomonlar o'rtasida o'zaro kelishilgan holda hal etiladi. Nizolar paydo bo'lganida tomonlar yozma ravishda ogohlantirish xati beradilar. Ogohlantirish xatiga javob berish muddati 10 kun.

7.2. Hal etilmagan nizolar Iqtisodiy sudida ko'rib chiqiladi. Iqtisodiy sudini qarori hal etuvchi hujjat xisoblanadi.

8. Fors-major

8.1. Tomonlarga bog'liq bo'lmagan holatlar "Yong'in, suv toshqini shu kabi boshqa holatlarida hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va Vazirlar Mahkamasining qarorlari", agar tegishli hujjatlar bilan tasdiqlangan taqdirda majburiyat bajarilmaganligi uchun tomonlar javobgarligidan ozod etiladi.

8.2. Yuqoridagi holatlar yuzasidan darhol xabaroma yuboriishi majburiydir.

9. Shartnoma muddati

9.1. Shartnoma imzolangan kundan va tegishli hududiy g'aznachilik bo'limidan ro'yxatga olingandan kundan boshlab 31-dekabr 2022-yilgacha amal qiladi. Shartnomaga asosan tomonlarning o'z zimmasiga olgan majburiyatlari bajarilmay qolsa, shartnoma majburiyatlar bajarilguncha amal qiladi.

10. Umumiy holatlar

10.1. "Xaridor" "Ta'minotchi" ga har oyning 5-sanasiga shu oyda zarur bo'ladigan dez moddalarining buyurtma ro'yxatini taqdim etadi. Bunda tovarning nomi, miqdori ko'rsatilishi shart. "Xaridor"ga "Ta'minotchi" tomonidan prays listlar taqdim etiladi. Prayst listga asosan "Xaridor" narxlariga alohida e'tibor bergan holda, narx varaqasiga asoslanib bir oylik ehtiyoj uchun zarur bo'lgan dez moddalarini sotib oladi.

10.2. Shartnomaga kiritilishi lozim bo'lgan barcha o'zgartirish va qo'shimchalar faqat yozma tartibda amalga oshiriladi va tomonlar imzolar, muhirlangandan so'ng tegishli g'aznachilik bo'limdan ro'yxatga olingandan keyin asosiy shartnomaning ajralmas qismi xisoblanadi.

10.3. Ushbu shartnomaga oid, lekin shartnomaga kiritilmasdan qolgan barcha holatlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunlari asosida hal etiladi.

Tomonlarning yuridik manzillari va rekvizitlari


"Ta'minotchi" «PROFARMA VODIY SAVDO» MCHJ
Manzil: Andijon shahar Boburshox ko'chasi 27-uy Tel: +99895 204 66 55
h/r: 20208000404729968001
Bank nomi: «Hamkorbank» Amaliyot filiali
MFO: 00083 STIR: 300944201
Rahbar: _____ N.Xamidov



«Xaridor»

ANDIJON VILOYATI QO'QON HUKUMATI Iqtisodiyot, sanoat va savdo boshqarmasi
ANDIJON SH. OGAHIY 3-UY, TEL: (74) 237-54-46
Shx: H/R: 10004110039047093101054002
ИНН: STIR: 2002369834 XUT: 91513
Ўзбекистон Республикаси (МФ) 00083
Газначилик: ҚАЗИЙ БАНК ТУШКОНТ ШАХАР ВЎХКМ
Газна х/р: 2340200030010000181022919
Марказий банк Тошконт шаҳар ХККМ
МФО 00014 газна ИНН: 201122919

Бosh врач: _____



Юраст: _____